

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Transport vositalarida katta va kichik yonilg‘i baki xajmini aniqlash datchigi (DUT) ni qiyoslash stendini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Yonilg‘i sig‘imlari hajmini yuqori aniqlikda modellashtirish, suyuqlik sathini barqaror va boshqariladigan sharoitda o‘zgartirish hamda o‘lchash natijalarini etalon qiymatlar bilan solishtirish imkonini beruvchi namunaviy qurilma yaratishning ilmiy-uslubiy metodlari takomillashtiriladi. Avtomobilsozlik, neft-gaz va kimyo sanoatlarida aniq sath o‘lchash imkoniyatlari kengayadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun zamonaviy va yuqori aniqlikdagi o‘lchash texnologiyalaridan foydalanish sharoiti yaratiladi. Sath o‘lchash vositalarini kalibrlash uslubiyoti ishlab chiqiladi hamda O‘zbekiston milliy standarti (O‘zMSSt) loyihasi tayyorlanib, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Namunaviy qurilma mahalliy va xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulot sifatida joriy etiladi. Mahalliy sharoitlarga mos, yuqori aniqlikdagi sath o‘lchash namunaviy qurilmasi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan areometrlarni kalibrlash qurilmasi va innovatsion kalibrlash uslubiyoti laboratoriya sinovlaridan o‘tkazilib, tajriba-ekspluatatsiya sharoitida aprobatatsiya qilinadi. Sinov natijalari “O‘zbekiston milliy metrologiya instituti” DM va uning hududiy filiallarida, shuningdek boshqa metrologik laboratoriyalar faoliyatiga joriy etilib, tijoratlashtiriladi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.